

## XO'JALIKDA ICHKI YER TUZISH LOYIHASINING EKOLOGIK, IQTISODIY VA IJTIMOYIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.

**Egamova Dilchehra Adizovna**

*Buxoro davlat texnika universiteti o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** Xo'jalikda ichki yer tuzishning ekologik samaradorligi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni qayta tiklash va ulardan oqilona foydalanish zaruratidan kelib chiqadi va eng avvalo, yer tuzish tadbirlarining va ishlab chiqarishning bizni o'rab turgan tabiiy muhitga ta'sirida, yerlarni yaxshilash, ularni eroziyadan himoya qilish, tabiatni muhofaza qilish choralarini amalga oshirish orqali ko'rinadi.

**Kalit so'zlar:** Yer tuzishni loyihalash, xo'jaliklararo yer tuzish, xo'jalik ichida yer tuzish, iqtisodiy usul, ekologik samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, kompleks baholash, almashlab ekish.

Xo'jalikda ichki yer tuzish samaradorligi uch sohada: ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy, namayon bo'ladi.

Yer tuzishning ishlab chiqarish-iqtisodiy yoki sodda qilib aytganda iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqarish va hududni o'zaro birgalikda tashkil etish, birinchi navbatda qishloq xo'jalik korxonasidagi moddiy ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etadigan xo'jalik yuritish sharoitlarini yaxshilash talablaridan kelib chiqadi.

Loyihaning ekologik samaradorligi asosiy hisoblanadi. Unga bo'lgan talab loyihaning har bir elementiga va har bir tarkibiy qismiga qo'yiladigan qattiq ekologik, tabiatni muhofazalash me'yorlarini bajarish zaruratida namayon bo'ladi. Xo'jalikda ichki yer tuzish loyahasining hech bir yechimi, agar u bu me'yorlarga mos kelmasa ko'rib chiqilishi mumkin emas.

Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasi ekologik samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

har bir yer uchastkasi bo'yicha olinadigan yerlarning sifati ahvoliga yer tuzishning ta'sirini kompleks baholash ma'lumotlari (gumus balansi; makro va mikro elementlar, og'ir metallar, radionuklidlar, qoldiq pestitsidlarning harakatchan shakllarining miqdori; yerlarning qishloq xo'jaligi uchun yaroqliligi bo'yicha toifalari, sinflari, mahsuldorligi bo'yicha baholash balli; kislotalashishi, namlanish rejimi; sizot suvlari sathi, suv sig'imi, mahsuldor suv zaxirasi; tuproqlari, rel'efi va boshq. sharoitlari bo'yicha bir xilligi);

tuproqlarning suv eroziyasi va deflyatsiya jarayon-larining pasayishi to'g'risida ma'lumotlar (tuproqlarning yuvilishi, joylar jarliklashishining pasayishi, eroziyaga uchragan yerlarni o'tloqlashtirish va o'rmonlashtirish, ekinlarning eroziya xavfi

koeffitsientlari va eroziya xavfi bor davrlarda tuproqlarning o'simliklar bilan loyihaviy qoplanishi, tartibga solingan suv oqimi hajmi, mikroiklim sharoitlarining o'zgarishi);

yerlarning tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan tuzulishi to'g'risida ma'lumotlar (suv-himoya mintaqalari va qirg'oqbo'yi polosalarining, sanitariya himoya mintaqalarining, himoyalananadigan landshaftlarning, konservatsiyalanish bosqichidagi yer uchastkalarining, sanitariya va zooveterinariya oraliqlarining, himoya, taqiqlangan va muhofaza mintaqalarining mavjudligi);

hududning ekologik tuzulishini tavsiflovchi ma'lumotlar migratsiya koridorlari, ekologik birliklar, mikroqo'riqxonalar, hududning ekologik har xilligi, ekologik turg'unligi indeksleri, «chekka samara» hisobga olingan agroladshaftlarning mahsuldorligi, ekotonlar uzunligi va boshqalar kiradi.

Xo'jalikda ichki yer tuzishning iqtisodiy samarasi quyidagilardan :

-ishlab chiqarish bo'limlarini, xo'jalik markazlarini va asosiy yo'llarni joylashtirishda - ishlab chiqarishning yillik xarajatlarini va har xil turdagi sarflarni (qayta qurish va qurilish uchun) kamaytirishdan;

-yer turlari va almashlab ekishlarni tashkil etishda - sof daromadning o'sishidan;

-almashlab ekishlar, daraxtzorlar, pichanzorlar va yaylovlar hududlarini tashkil etishda - ishlab chiqarish jarayonlarini bajarish va ishlab chiqarish zararlarining oldini olish (aylanish polosalari, qoldiq uchburchaklar, o'tkir qirralar tagidagi maydonlarning kamayishi hisobiga) uchun xarajatlarning pasayishidan iborat.

Yer tuzish iqtisodiy samarasining mazkur tabaqalanishini hisobga olib, ishlab chiqarishning va unga mos xo'jalik darajasi infratizimining elementlarini yaratishdagi kapital xarajatlar samaradorligi hisoblanadi. Masalan, yer turlarini transformatsiyalashda sarflangan kapital xarajatlar yangi o'zlashtirilgan yoki intensivroq foydalaniladigan yerlardagi sof daromadning o'sishi bilan qoplanadi, almashlab ekishlar hududini tashkil etishda esa, dala shiyponlarini, yo'llarni qurish uchun sarflanadigan kapital xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarining va sh.o'. pasayishi hisobiga qoplanadi.

Ko'rinib turibdiki, yer tuzishning asosiy samarasi sof daromadning o'sishi va ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi (ular ham sof daromadning o'sishiga aylanishi mumkin) bilan bog'liq. Bu o'sishlar qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlarini (S) talab etadigan, qo'shimcha kapital xarajatlar (K) hisobiga, hamda qo'shimcha xarajatsiz amalga oshiriladigan tashkiliy-xo'jalik tadbirlaridan kelib chiqadi.

Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining iqtisodiy samaradorligini baholashning yuqorida sanab o'tilgan barcha tadbirlarni hisobga oladigan, umumlashtirilgan ko'rsatkichini hisoblash uchun sof daromad o'sishining  $\Delta SD$  keltirilgan xarajatlarga nisbatidan foydalaniladi:

$$\frac{\Delta SD}{C + KE_M} \rightarrow \max,$$

bunda  $E_m$ -kapital xarajatlar samaradorligining me'yoriy koeffitsienti.

Hududni tashkil etish hisobiga olinadigan sof daromad o'sishining mos loyiha va qidiruv ishlari xarajatlariga, kapital xarajatlarga, ishlab chiqarishning joriy xarajatlariga nisbati loyihani amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-hududiy tadbirlar, kapital xarajatlar samaradorligini baholash imkonini beradi.

Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining iqtisodiy samaradorligini baholashda texnik (texnik-iqtisodiy), agroiqtisodiy va iqtisodiy (qiymat) ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining texnik ko'rsatkichlari, asosan, loyiha yaratgan hududni tashkil etishning kenglik sharoitlarini va yerlarning texnologik xususiyatlari (joyning rel'efi, tuproqlarning mexanik tarkibi, to'siqlar mavjudligi, madaniy texnik ahvoli, konturlar kattaligi va sh.o.) tavsiflarini baholash uchun xizmat qiladi.

Yer tuzishni loyihalash jarayonida texnik ko'rsatkichlar loyihani tuzishda agregatlar harakatining ishchi yo'nalishlaridagi mumkin bo'lgan nishabliklar, polosalar orasidagi uchastkalarining cheklangan kengligi, ishlab chiqarish bo'limlariga birlashtiriladigan yer massivlarining tavsifa etiladigan maydonlari, almashlab ekishlar, dalalar, ishchi (sug'orish) uchastkalarining optimal maydonlari, mollarni haydashning yo'l qo'yiladigan masofalari bo'yicha ilmiy asoslangan me'yorlarning qo'llanishini aks ettiradi. Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining texnik ko'rsatkichlari bunda, yer tuzishni loyihalash me'yorlariga qanday rioya qilinganligi, mavjud holatga nisbatan yer egaliklari va yerdan foydalanishlarning kenglik sharoitlari yaxshilanganligi, mumkin bo'lgan yechimlarning kamchiliklari va ustunliklari qandayligi to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi.

Loyihani agroiqtisodiy asoslash belgilangan hududni tashkil etishning ishlab chiqarishni kengaytirish talablariga mosligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi, shu-ning uchun agroiqtisodiy asoslash ko'rsatkichlari, asosan, xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining tashkiliy-xo'jalik tomonini tavsiflaydi va har xil balanslar tizimi-dan iborat bo'ladi: ishchi kuchi, ozuqa, o'g'it, mollarning aylanishi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va taqsimlash. Agroiqtisodiy asoslash ishlab chiqarishni va uning tarmoqlarini joylashtirish, xo'jalikning tashkiliy-ishlab chiqarish tuzulishini asoslash, almashlab ekishlarni joriy etish masalalarini echishni ham o'z ichiga oladi, bu ham mos ko'rsatkichlarda aks ettiriladi.

Iqtisodiy asoslash hududni tashkil etishning eng yaxshi yechimini aniqlash, loyihaviy yechimlarning mavjud holatga nisbatan samaradorligini aniqlash va xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasini uning samaradorligini tavsiflovchi qiymat ko'rsatkichlari bilan ta'minlash maqsadida o'tkaziladi. Bunda iqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiyotni yaxshilash va har xil tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi, ishlab chiqarish jarayonlarini oqilona tashkil etish bo'yicha kutilayotgan natijalarni bu yaxshilashlar keltirib chiqaradigan xarajatlar bilan solishtirish uchun qo'llaniladi.

Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihalarini iqtisodiy asoslash ko'rsatkichlari tizimi loyihalar tabiiy qismlari va elementlari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlaridan tashkil topadi .

Xo'jalikda ichki yer tuzishning ijtimoiy samaradorligi ishlab chiqarish sharoitlarini rivojlantirish va yaxshilashga qaratilgan. U aholining hayot, mehnat, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish va dam olish sharoitlarining o'zgarishiga ham olib keladi.

Xo'jalikda ichki yer tuzishning ijtimoiy samaradorligi loyihaning tarkibiy qismlari va elementlari bo'yicha tabaqalanadi.

Ishlab chiqarish bo'limlari va xo'jalik markazlarini joylashtirishda u quyidagilardan iborat bo'ladi:

-yer ulushlarini va mulkiy paylarni taqsimlashda, ishlab chiqarish bo'limlarining yer massivlarini shakllantirishda, fuqarolar va ishchilar yer ulushlarini xo'jalikning ichki ishlab chiqarish bo'limlariga birlashtirishda ijtimoiy haqqoniylikni ta'minlash;

ishlab chiqarishni boshqarish va unga rahbarlik qilish sharoitlarini yaxshilash, korxonalarda ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish, bu mehnat unumdorligining oshishiga ta'sir ko'rsatadi;

-xo'jalik markazlarini to'g'ri joylashtirish, uy-joy, madaniy-maishiy va ishlab chiqarish qurilishlarining kelajakdagi rivojlanishini aniqlash, migratsiya jarayonlari xarakterini maqsadli o'zgartirish hisobiga, aholining hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilash.

Magistral yo'llarni, yo'l inshootlarini, boshqa hududni injenerlik jihozlash ob'ektlarini joylashtirish-da ijtimoiy samaradorlik odamlar va qishloq xo'jalik texnikasining ish joyiga va orqaga befoyda yurishlari uchun sarflanadigan vaqtni va mablag'larni qisqartirish, qarama-qarshi yurishlarni tugatish, transport vositalari ishlarini yaxshilash, suv, issiqlik ta'minotlarini, aloqa, energiya ta'minotini to'g'ri tashkil etish hisobiga mehnat sharoitini o'zgartirishdan iborat bo'ladi.

Yer turlarini va almashlab ekishlarni ijtimoiy asoslash madaniy landshaftlarni yaratishdan, aholining estetik va rekratsion talablarini qondirishdan, atrof muhitni sog'lomlashtirish va uni himoyalashdan iborat bo'ladi.

Almashlab ekishlarni tashkil etish va ular hududini tuzishning ijtimoiy samaradorligi oqilona ishchi yo'nalishi uzunligiga ega, to'g'ri shakllardagi dalalarni loyihalashdan iborat bo'ladi, bu, dalada ish jarayonlarini amalga oshirish uchun normal sharoit yaratadi, mehnat sharoitlarini yaxshilash, qishloq xo'jalik texnikasining befoyda yurishlari, aylanishlari va kirib chiqishlari vaqtini qisqartirish imkonini beradi, mexanizatorlarning toliqishini, dala ishlari muddatlarini kamaytiradi, mehnat unumdorligini oshiradi.

Dala ishlari davrida ekinlarni optimal maydonli dalalarda jamlash hisobiga texnikani, ta'mirlash xizmatini to'plash, ovqatlanishni va ishchilar maishiy ahvolini yaxshilash, transport xizmatlarini zarur darajada ta'minlash mumkin.

Daraxzorlar, pichanzorlar va yaylovlar hududlarini tashkil etishda loyihaning ijtimoiy samaradorligi agrolandshaftning estetik xususiyatlari kuchayishida, ishchilarning (bog‘bonlar, chorvadorlar) mehnat sharoitlari yaxshilanishida o‘z aksini topadi.

Xo‘jalikda ichki yer tuzish loyihasining ijtimoiy sharoitlarga ta‘siri darajasini son jihatdan baholash etarli darajada murakkabdir, sababi, ko‘p ijtimoiy ko‘rsatkichlar sifat tavsifga ega. Shu bilan bir qatorda loyihaning ijtimoiy samaradorligi quyidagi natijalarga olib keladi deb hisoblash mumkin:

-unumsiz faoliyatni (texnikaning o‘tishlari, aylanishlari va kirib-chiqishlari, texnik xizmat ko‘rsatish, odamlarni va yuklarni tashish, mollarni haydash va boshq.) qisqartirish hisobiga vaqtni tejashga;

-ishchilar bandligini oshirish, ishlarni bajarishning mavsumiyligini va tig‘izligini tekislash, turib qolishlarni qisqartirish, mehnat sharoitini yaxshilashga;

ayrim ishchilarning va mehnat jamoalarining, umuman korxonaning o‘zlariga birlashtirilgan yerlardan va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan yaxshi foydalanishdan manfaatdorliklarining o‘shishiga.

Bu ishchilar mehnat unumdorligining sezilarli o‘shishiga, mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko‘payishiga va uning tannarxi pasayishiga olib keladi. Iste‘mol va jamg‘armalar o‘sadi, qishloqda hayotning ijtimoiy sharoitlari sezilarli yaxshilanadi.

Natijada yer tuzishning barcha turdagi samaradorliklari qishloq xo‘jalik korxonasi faoliyatining iqtisodiy natijalarida aks etadi. Amaliyot ko‘rsatadiki, xo‘jalikda ichki yer tuzish loyihalarini o‘zlashtirgan xo‘jaliklar ishlab chiqarishni boshqa qishloq xo‘jalik korxonalariga nisbatan tuproqlar unumdorligining to‘xtovsiz o‘shishida samaraliroq olib boradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Egamova, D.A, Shukurova N.O, Ahmadov B.O (2020). EFFICIENT AND RATIONAL USE OF LAND RESOURCES IS A REQUIREMENT OF THE TIME. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 327-328).

2. Egamova, Dilchehra Adizovna; Bobojonov, Said; Muhamadov, Qamariddin Muxtarovich. "BUXORO VILOYATIDA TUPROQ MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH." Студенческий вестник 18-11 (2021): 92-94

3. Tukhtaeva K. T., Egamova D. A. CHARACTERISTICS OF DESERT-SANDY SOILS OF KANIMEKH DISTRICT //The Way of Science. – 2014. – С. 49.

4. Жураев Т. Х., Эгамова Д. А. ГЕОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ДЛЯ СИМУЛЯЦИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ОБОРАЧИВАНИЯ ПЛАСТА

//СОВРЕМЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ, ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИННОВАЦИИ. – 2020. – С. 106-109.

5. Egamova Dilchehra Adizovna, Bobojonov Said Utkirovich, & Mukhamadov Kamariddin Mukhtarovich. (2021). IMPROVEMENT OF SOIL RECLAMATION (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION). *Euro-Asia Conferences*, 5(1), 285–286.

6. Egamova, D. A., Azimova, S. J., Muxamadov, Q. M., & Bobojonov, S. (2021). LABOR RELATIONS ON THE FARM. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (6-2), 23-26.

7. Tuxtayeva, X. T., Egamova, D. A., & Hamroyeva, B. Z. (2022). The Potential of Ecotourism in the Economic and Social Development of Bukhara Region. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 8, 155-158.

8. Adizovna, E. D., & Farrukhovna, Q. L. (2022). LAND RESOURCES MANAGEMENT ISSUES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(05), 138-141.

9. Adizovna, E. D. (2022). ECONOMIC AND ECOLOGICAL ASPECTS OF AGRICULTURAL LAND PROTECTION IN INTER-FARM LAND CREATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 1304-1310. Adizovna, E. D. (2022). ECONOMIC AND ECOLOGICAL ASPECTS OF AGRICULTURAL LAND PROTECTION IN INTER-FARM LAND CREATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 1304-1310.

10. Adizovna, E. D., & Shokirovich, H. S. (2022). Features of Land Monitoring in Agriculture. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(6), 193-196.

11. Abdulloyev, A. M., Sattorov, S. Y., Sulaymonov, M. V., Abdualiyeva, S. H., Ochilov, A. B., & Ismatov, T. A. (2022). Foreign Experience in Land Use Management. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.

12. Muzaffarovich, A. A., Yarashovich, S. S., & Hamdamovna, A. S. (2022). SUVDAN OQILONA FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 911-915.

13. Adizovna, E. D., & Nematovich, S. J. (2022). ADVANTAGES OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN GROUND MONITORING. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 1-4

14. Adizovna, E. D. (2023). YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH MASALALARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(16), 173-178.

15. Adizovna, E. D. (2023). DISTINCTIVE FEATURES OF THE GERMAN CADASTRAL SYSTEM. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(20), 178-182.

16. Эгамова, Д. (2023). Социально-экономическое значение приватизации земельных участков. Основные направления стратегии земельной реформы: проблемы и решения, 1(1), 101-108.

17. Adizovna, E. D., & Majiddinovich, U. U. (2023). GERMANIYA KADASTR TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 358-362.

18. Эгамова, Д. А., Бобожонов, С. У., & Мухаматов, К. М. (2014). ПОВЫШЕНИЕ РАЦИОНАЛЬНОГО И ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ. *The Way of Science*, 57.

19. Adizovna, E. D., & Majiddinovich, U. U. (2023). O'ZBEKISTONDA MULKNI HIMOYA QILISH HAMDA XUSUSIY MULKCHILIK SHAKLLARINI YANADA TAKOMILLASHTISH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(15), 83-89.

20. Эгамова, Дильчехра, and Н. К. Ахадова. "МЕТОДИКА И ТЕХНОЛОГИЯ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНОЙ СТРУКТУРЫ." *Центральноазиатский журнал образования и инноваций* 2.3 (2023): 53-57.

21. Adizovna, E. D. (2023). SYSTEM OF LAND STRUCTURE DESIGN IN UZBEKISTAN AND ITS MAIN CONTENT. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 155-161.

22. Egamova, D., & Ahadova, N. (2023). O'ZBEKISTONDA YER TUZISHNI LOYIHALASH TIZIMI VA UNING ASOSIY MAZMUNI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(3), 47-52.

23. Xasanov, F., Egamova, D., & Asatov, J. (2023). EKOLOGIK BERQARORLIK SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINI LOYIHALASHNING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(3), 138-143.

24. Egamova, D., Nurullayev, S., & Ahadova, N. (2023). XUSUSIY MULK SIFATIDA YERDAN FOYDALANISH MEKANIZMI SHAKLLANISHING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(3), 18-23.

25. Пиримов, Ж. ., Юсупов, М. ., & Қўзиев, Х. . (2022). КАРТАЛАРНИ ЯРАТИШДА ФОТОГРАММЕТРИК МЕТОДЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. *ZAMONAVIY FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH MUAMMOLARINING INNOVATSION YECHIMLARI*, 184-187.

26. ПИРИМОВ, Ж. Ж. (2021). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОРТОФОТОПЛАНОВ ДЛЯ РАБОТЫ КАДАСТРА С ПОМОЩЬЮ ФОТОГРАММЕТРИЧЕСКИХ МЕТОДОВ И ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ. In *Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021* (pp. 295-299).

27. Pirimov, J. J. (2020). USE OF PHOTOGRAMMETRIC METHODS AND GEOINFORMATION SYSTEMS IN CADASTRAL WORKS. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве* (pp. 333-335).

28. Пиримов, Ж. Ж. (2020). ФОТОГРАММЕТРИК МЕТОДЛАР ВА ГЕОАХБОРОТ ТИЗИМЛАРИДАН КАДАСТР ИШЛАРИДА ФОЙДАЛАНИШ. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, (SPECIAL ISSUE).

29. Asatov, A. R., Pirimov, J. J., Muhamadov, K. M., Bobojonov, S. O., & Axtamov, S. F. (2021). The Importance of Orthophotoplans in Cadastre Work. *International Journal on Orange Technologies*, 3(7), 40-42.

30. Adizova, F. N., Mukhamadov, K. M., Abdulloyev, Z. T., & Saidov, S. S. (2022). RESEARCH PARK.

31. FN, A. (2022). YER MONITORINGI-ILMIY YO'NALISH SIFATIDA. (KONSEPSIYASI, METODOLOGIYASI, TEXNOLOGIYASI). *PEDAGOG*, 1(3), 624-629.

32. FN Adizova, KM Mukhamadov, ZT Abdulloyev, SS Saidov RESEARCH PARK Page 1 *INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT*. 55-59

33. Ibragimova, M., & Egamova, D. (2023). QISHLOQ XO'JALIK ICHKI YER TUZISH LOYIHALARIDA ALMASHLAB EKISHLAR HUDUDINI TASHKIL ETISH NING ILMIY AHAMIYATI. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(3), 118-122.

34. Adizovna, E. D., & Qahramon o'g'li, N. S. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANMAGAN YER UCHASTKALARINI XUSUSIYLASHTIRISHDA YER AXBOROT BAZASINI YARATISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(3), 494-499.

35. Mirzoaliyevna, I. M., & Adizovna, E. D. (2023). ECOLOGICAL EFFICIENCY OF THE PROJECT OF INSTRUCTION IN THE FARM. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(3), 500-506.